

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK GEOGRAFIYA O'QITUVCHILARINI O'QUV JARAYONIDA LOYIHA
TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA TAYYORLASH MODEL****МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ГЕОГРАФИИ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ
ПРОЕКТНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ****A MODEL FOR PREPARING FUTURE GEOGRAPHY TEACHERS TO USE PROJECT
TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS****Hamdamova Feruzaxon Alijon qizi** 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning metodik tizimi, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассмотрены теоретические основы подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий в учебном процессе, методическая система подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий в учебном процессе, применение проектных технологий в учебном процессе по географии будущего. преподавателями изучена эффективность подготовки к использованию. Также проанализировано содержание подготовки будущих учителей географии к использованию проектных технологий в учебном процессе.

Abstract

In the article, the theoretical foundations of preparing future geography teachers to use project technologies in the educational process, the methodological system of preparing future geography teachers to use project technologies in the educational process, the use of project technologies in the educational process of future geography teachers the effectiveness of preparation for use has been studied. Also, the content of preparing future geography teachers to use project technologies in the educational process was analyzed.

Kalit so'zlar: bo'lajak geografiya o'qituvchilari, texnologiya, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, shakl, metod, vosita, baholash, kreativ fikrlash, refleksivlik, loyiha texnologiyalari.

Ключевые слова: будущие учителя географии, технология, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, дидактический, форма, метод, инструмент, оценка, творческое мышление, рефлексивность, проектные технологии.

Key words: future geography teachers, technology, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, form, method, tool, evaluation, creative thinking, reflexivity, project technologies.

KIRISH

Loyiha texnologiyasi ta'lim tizimi jarayonlariga jadallik bilan tatbiq etilayotgan bugungi kunda, uning o'ziga xos talablari, davlat tomonidan qo'yiladigan standartlari va ta'lim tarmoqlarini rivojlantirish uchun ijtimoiy buyurtma sifatida o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Uning pedagogika va metodika yo'nalishlari sohasida doimiy ishlab chiqilishi, takomillashtirilishi va rivojlantirilishi bilan ahamiyat kasb etadi. Loyiha texnologiyasi geografiya o'qituvchilarining o'z kasbini takomillashtirish jarayonlari uchun muhimligi kun sayin ortib bormoqda. Eng asosiysi loyiha texnologiyasi bugungi kun ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'quv jarayonini loyihalash, o'qitish jarayoniga ta'lim texnologiyasini tatbiq etish kabi masalalar R.X.Djurayev, N.N.Azixodjayeva, Sh.A.Abdullayeva, O.Roziqov, M.H.Usmonboyevlar va boshqalarning ishlarida yoritilgan bo'lib, geografiyalarni o'qitish metodikasi, vositalari,

PEDAGOGIKA

konsepsiyasi, tamoyillari, lingvometodik asoslariga oid masalalar J.B.Bo'ronov, S.N.Aliyev, A.M.Bushuy, J.J.Jalolov, L.T.Axmedova, F.M.Rashidova, I.M.Tuxtasinov, K.SH.Muradkasimova, F.X.Ibragimova, K.D.Riskulovalar tomonidan o'rganilgan. Xorijlik olimlar Max Walter, Michael West, Anthony Philip, Maximilian Berlitz, I.L.Bim, N.N.Boldirev, N.D.Galskova, YE.N.Zaretskayalar, YE.M.Vereshagin, V.G.Kostomarov, V.V.Oshepkova, V.V.Safonovalar tomonidan innovatsion ta'lim masalalari o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Olimlarning ta'kidlashlaricha, o'qish va ta'lim olish faol tarzda talabalarning shaxsiy qiziqishi asosida amaliy faoliyat tarzda olib borilishi, shuningdek, u hayot davomida olingan bilimlar asosida amaliy ishlarga tayanilishi lozim. Bugungi kunda loyiha texnologiyasi juda samarali uslub sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotganligi hamda tobora ommalashib borayotganligini, buning asosiy sababi sifatida esa nazariy bilimlarning muammolar yechimiga nisbatan amaliy qo'llanilishi borgan sari kengayib borayotganligini ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari, bo'lajak geografiya o'qituvchilari tomonidan loyiha texnologiyasining qo'llanilishi orqali quyidagi yutuqlarga erishish mumkin: talabalarda shaxsiy ishonch hissini oshiradi; "jamoaviylik ruhi"ni, xushmuomalalik va hamkorlik qilish layoqatini rivojlantiradi; tanqidiy fikrlash mexanizmini ta'minlaydi, muammolar yechimi yo'llarini topishni o'rgatadi; talabalarda tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi va xokazo.

Jahon hamjamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining yangi sharoitlari yuqori kasbiy kompetensiyalarga, yangi bilimlarni mustaqil tarzda egallay olish layoqatiga ega, kreativ fikrlay oladigan nostandart vaziyatlarda muammolar yechimi borasida optimal yechimlar topa oladigan, innovatsion faoliyatga qobiliyatli bo'lgan yuqori professional mutaxassislar tayyorlashning talablarini ham doimiy o'zgartirib bormoqda. Ta'lim tizimi oldida esa shaxsiy takomillashuv va kasbiy o'sishga qaratilgan yangi darajadagi malakali mutaxassislarni tayyorlash muammosi doim dolzarb ahamiyat kasb etib boraveradi.

Loyihalar bir necha turlarga bo'linadi. Loyiha texnologiyasi asosida amalga oshirilgan dars bir vaqtning o'zida ham yangi materiallarni o'zlashtirish darsi, ham o'sha vaqtda o'quv vazifalarini yechishning ko'nikmalarini ishlab chiqish va mustahkamlash darsi ham bo'lishi mumkin.

Pedagogik adabiyotlar tahlili orqali loyiha texnologiyasining turli ma'nolarda, ya'ni o'qitish metodi, o'qitish shakli, o'quv faoliyati shakli, anglash faoliyatini boshqarish vositasi, talabning mustaqil ishini tashkil qilish vositasi kabilarda qo'llanilishi aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarimiz natijalari loyiha texnologiyasining darsgacha, darsda, darsdan keyingi tatbiqi aynan uning turli shakl-shamoyilidan foydalanish samarali ekanligini ko'rsatdi.

Ta'lim berish bilan bog'liq tajribalarimizda loyiha texnologiyasini tanlash darsning aniq mazmuniga bog'liq ravishda kechdi. Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash maqsadida loyihalarning turli klassifikatsiyalaridan foydalanildi. Bunday yondashuvdan ko'zlangan maqsad, har bir talabning o'ziga xos individualligini hamda kasbiy faoliyatga tayyorlik darajalarining turlichaligini inobatga olish hisoblandi. Amaliyotda qo'llanilgan loyihalarning turlarini keltiramiz:

Loyihada qo'llaniluvchi ustuvor metod yoki ishni tashkil etish shakllari bo'yicha: tadqiqot bilan bog'liq; ijodiy; rol bilan bog'liq o'yinlar; axborotli; amaliy yo'naltirilgan (tatbiqiy).

Sohaga oid, predmet mazmuni bo'yicha: monoloyihalar; predmetlararo loyihalar.

Loyihadan ko'zlangan maqsadga erishishda xududiy munosabatlar va aloqalar tasnifi bo'yicha: ichki yoki mintaqaviy; xalqaro.

Loyiha ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etish bo'yicha: individual; juftlik; guruh.

Loyihaga ajratilgan vaqtning nazoratga olingani va unga rioya etilgani bo'yicha: qisqa muddatli; o'rta muddatli; uzoq muddatli.

Erishilgan natijalarining hisobot shakllari bo'yicha: ma'ruza, albom, to'plam, katalog, almanax; maket, jadval-sxema, reja-xarita; videofilm; ko'rgazma va boshq.

Bo'lajak geografiya o'qituvchilarining faoliyati axborotlar, turli matnlar bilan bog'liqligi bois, amaliy loyihalarning quyidagi turlaridan foydalanildi:

1. Informatsion matnlar yoki ilmiy tadqiqot loyihalari.
2. O'zaro izlanuvchilik muloqotga asoslangan loyihalar.

3. Sxemalar, chizmalar yaratishga doir loyihalar.

4. Ijodiy va ishbilarmonlik o'yinlarini taqozo etuvchi loyihalar.

Loyihalarni amalga oshirish quyidagi talablarga rioya etishga ustuvor jihat deb qaraldi:

1. Loyihaning OTM o'quv va tarbiya jarayonida amalga oshirilishi, uning mazmunidan kelib chiqishi.

2. Loyihalarning erishimli natijalarni ko'zlashi.

3. Talabalarning ishlari ongli va faol bo'lishi.

4. Talabalar o'z fikrlarini yozma ravishda aniq shakllantira olishlari, yangi axborotlarni tahlil qila olishlari va yangi g'oyalar yaratishda ishtirok eta olishlari.

5. Loyihaning pirovard maqsadi uning rasmiylashtirilishida aks etishi. YA'ni uning mazmuni tushuntirib bera oladigan, yozma ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi (titul varag'ida loyihaning nomi, muallifi, guruhi, o'quv muassasasi, rahbari va boshqa zaruriy ma'lumotlar o'rin olgan bo'lishi) shart.

Talabalar loyiha bo'yicha faoliyatini tashkil etishda quyidagi bosqichlar ajratib berildi:

1. Loyiha mavzusi va shaxsiy farazlari asosida maqsadlarni qo'ya olish.

2. Muammo va ziddiyatni topish, vazifalarni shakllantirish.

3. Faoliyat jarayonida yuzaga keluvchi fors-major vaziyatlarni muhokama qilish, ularni oldini olish yoki ulardan chiqib ketish yo'llarini tanlash.

4. O'qituvchi yordamida yoki mustaqil ishlash.

5. Faoliyat yo'nalishlarini o'ylab topish (agar guruhli bo'lsa, majburiyatlarni taqsimlash).

6. Amaliy harakatlar, tadqiqotlar olib borish, alohida vazifalarning yechimini jamlash.

7. Muayyan natijalarni umumlashtirish, shaxsiy xulosalarni shakllantirish.

8. Yutuqlar va xatolarni tahlil qilish, zaruriy to'ldirishlar, tuzatishlar kiritish.

Loyihalarni bajarish tizimining o'ziga xosligi o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi. Ammo, loyiha faoliyatida o'qituvchining roli nimadan iborat bo'ladi degan savolga javob berish ham oldimizda turgan asosiy masalalardan ekanligini hisobga olgan holda, ushbu savollarga ham javob topish, tadqiqotning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Zero, o'qituvchining loyiha metodini amalga oshirishdagi faoliyati nihoyatda muhim bo'lib, ta'lim muassasasida loyihalashtirish o'qituvchining tashkiliy faoliyati va madaniy pozitsiyasiz imkoniy yo'q jarayon sifatida baholash mumkin bo'ladi. Amaliyotda bu holat o'qituvchi pozitsiyasining o'zgarishiga olib keladi. O'qituvchi yoki pedagog loyihalashtirish jarayonida shunchaki bilim beruvchi subyektdan o'z talabalari anglash faoliyatining tashkilotchisiga va ilxom beruvchi manbaiga aylanadi.

O'qituvchining dars o'tkazish jarayonidagi ijodiy va nostandart yondashuvi talabalarda motivatsiya yuksalishiga hamda ularda mustaqil faoliyat shakllanishiga zamin bo'ladi. Pedagogning roli shuningdek, doimiy konsultativ yordamda ham namoyon bo'ladi. Loyiha faoliyati pedagogga talaba uchun individual yondashuvni amalga oshirishga imkon beradi.

Bunday jarayonlarda darsda psixologik iqlim ham o'zgaradi. Pedagog axborot tarqatishning asosiy manbaidan tadqiqotning, ijodiy jarayonning ishtirokchisiga, ustoz va maslahatchiga, talaba mustaqil ta'lim faoliyatining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida haqiqiy hamkorlikni vujudga keltiradi.

Loyiha ustida o'qituvchining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni alohida qayd etib o'tishimiz lozim bo'ladi. Chunki, aynan o'qituvchining ishtiroki, loyiha jarayonidagi ahamiyati juda beqiyos hisoblanadi: talabalarga zaruriy axborotlarni izlab topishning manbalarini topishga yordam beradi; o'zi aslida axborotning haqiqiy manbai sifatida namoyon bo'ladi; butun jarayonni muvofiqlashtirib boradi; talabalarni doimiy rag'batlantirib boradi; talabalar loyiha ustidagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun uzluksiz qayta aloqani mustahkamlaydi.

Endi talabalar ham loyiha faoliyatidagi rolini ko'rib chiqsak. Talabalar loyiha faoliyati ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Loyihaviy vazifalarni bajarayotganda talabalar hamkorlik metodikasi asosidagi anglash ijodiy jarayoniga faol jalb qilingan bo'ladi. Ular ijodiy vazifalarni bajarish jarayoniga shon'g'ib ketish bilan bir qatorda, o'rganayotgan predmeti, misol uchun geografiyani o'rganish va bajarilayotgan loyiha doirasida eski bilimlarini mustahkamlaydi va yangilarini doimiy o'zlashtirib boradi. Shu bilan birga, talabalar har biri o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda, o'z loyihalarini amalga oshiradilar. Shunday qilib, real faoliyatga

PEDAGOGIKA

kirishgan holda, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni tezlashadi. Aynan loyiha metodi yordamida qo'lga kiritiladigan asosiy yutuqlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Muammolarni aniqlash va shakllantirish.
2. Ularning tahlilini amalga oshirish.
3. Muammolarni yechish yo'llarini topish.
4. Axborotlar bilan ishlash.
5. Zaruriy axborotlarni topish, ma'lumotlarni turli adabiyotlardan yoki ommaviy axborot vositalaridan izlash, ajratish.
6. Oldinga qo'yilgan vazifalar yechimi uchun olingan axborotlarni qo'llash.

Loyiha texnologiyasi o'zining didaktik mavjudligi munosabati bilan talabalarda mantiqiy, algoritmik, tanqidiy va ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish vazifalarini yechishga imkon beradi. Bundan tashqari u keyingi kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan xushmuomalalik, tolerantlik, hamkorlik singari muhim shaxsiy sifatlarni shakllantiradi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim jarayoniga joriy qilinayotgan bunday yangi metodlar an'anaviy pedagogikani rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni boyitishi, zamonaviylashtirishi, innovatsion xarakter taqdim qilishi kabilar bilan xarakterlanmoqda. Lekin ular ichida aynan biz tomonidan tadqiq qilingan loyiha metodi, birinchi galda talabalarni mustaqil fikrlashga, faollashtirishga, ularda tanqidiy qarashlarni shakllantirishga, shaxsiy sifatlarni oshirishga va eng muhim tahliliy qobiliyatlarni rivojlantirib, hamkorlik sohasini kengaytira olishga imkon yaratmoqda. Loyiha metodi yordamida talabalarda fikrlashning loyihaviy stili shakllanishini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зерщикова Т.А. О способах реализации метода проектов в вузе // Проблемы и перспективы развития образования: материалы междунар. науч. конф. (г. Пермь, апрель 2011 г.). Т. II. – Пермь: Меркурий, 2011. – С. 79-82.
2. Ибрагимова Ф.Х. Ёўлажак инглиз тили ўқитувчиларида Англия маданиятига қизиқишни орттириш асосида касбий компетентлигини ривожлантириш: Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф. –Т.: 2018. – 44 б.
3. Кларин М.В. Инновационные модели учебного процесса в современной зарубежной педагогике: Дисс. д-ра пед. наук. –М.: 1994. – 365 с.
4. Розиков О. Дидактика. –Тошкент: "Фан" нашриёти, 1997. –60 б.
5. Селевко Г.К. Технологии развивающего образования – М.: НИИ шк. технологий, 2005. – 182 с.